

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI  
O'QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI  
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami**

**2024-yil 17-may**

**Сборник материалов международной научно-практической  
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ  
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**17 мая 2024 года**

**Collection of materials of the international scientific and practical conference  
PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE  
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

**May 17, 2024**

**Guliston – 2024**

**Xulosa.** G‘afur G‘ulom “Shum bola” asarida insoniy muammolarni ifodalash, ularningyechiminiizlash va o‘ziga xoslikni qamrab olgan odatni izohlash orqali, shoiriy uslubni rivojlantirgan va ma’naviyatni o‘rgangan. Bu asar o‘zbek adabiyoti va yozuvchiligi tarixida milliy madaniyatning yuksalish davrida, o‘zbek tilidagi zamonaviy adabiy uslub va an'analarni yaratishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan eng yaxshi asarlardan biri deb hisoblanadi. “Shum bola” asari o‘zbek adabiyoti va yozuvchiligi tarixida milliy, ijodiy-ma’naviy, shoiriy yutuqlar, badiiy qahramonlar, insoniy muammolarni ifodalash, ijodiy uslub va ma’naviyatning tarqatilishi bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib boradi. Bularning barchasi “Shum bola” asarining o‘ziga xosligi va uning yaratilishi bo‘yicha umumiylashtirish uchun muhimdir va shu asarning milliy va jahon adabiyoti tarixidagi o‘rni hamda qadimiy uslublarni o‘z ichiga olganligi animdir.

### **Adabiyotlar**

1. G‘afur G‘ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.
2. Naim Karimov, G‘afur G‘ulom. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyuyi. – Toshkent, 2003.
3. Bozorova N. G‘afur G‘ulomning badiiy mahorati. – Toshkent davlat yuridik universiteti/
4. <https://shosh.uz>
5. <https://qomus.info>
6. <https://fayllar.org/ozbekiston-milliy-ensiklopediyasi-v2.html?page=10>

## **TOG‘AY MUROD ASARLARIDA SHEVAGA XOS SO‘ZLAR**

*Normamatova Go‘zal Abdusalim qizi, talaba, Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
go‘zalnormamatova8@gmail.com*

**Annotasiya.** Maqolada Tog‘ay Murod qissalarida qo‘llangan shevaga xos so‘zlarning fonetik, leksik hamda morfologik xususiyatlari yoritilgan. Yozuvchi asarlarida qatnashgan dialektizmlar xatnashgan ma’no ko‘chish usullaridan namunalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiy til, noadabiy qatlam, sheva, dialektizm, fonetik xususiyat, leksik xususiyat, morfologik xususiyat, ma’no ko‘chishi.

Ma’lumki, dialektizmlarning fonetik, leksik va grammaticko-rinislari mavjud bo‘lib, Tog‘ay Murod asarlarida ularning barchasidan keng va unumli foydalangan. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko‘zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. Odatda, shevadagi fonetik o‘zgachalikdan badiiy matnda estetik maqsadda foydalilanadi, chunki bunday O‘zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi. Qolaversa, hududiy mansublikni ta’kidlaydi, qahramon nutqining individualligini ta’minlaydi. Fonetik dialektizmlarning hosil bo‘lishi fonetik jarayonlar – tovush o‘zgarishi, orttirilishi, tushishi, ikkilanishi hodisalari bilan yuzaga chiqadi. 1. So‘z o‘rtasida v undoshi b ga almashadi: qovoq-qoboq. “Otamiz qoboq uyub ichkarilaydi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 27).

2. So‘z boshidagi y undoshi j ga almashadi: yigit-jigit. “Tavarak qishloqlardan jigitlar kelib qo‘silyapti” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 30).

3. Juft so‘zlarda s undoshining ch undoshiga almashishi: yog‘in-sochin. “Yog‘in-chochindan ayting. – Yog‘in-chochin...qor kam yog‘adi, aqlar. Yil oxirida sel ko‘p keladi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 68).

4. So‘z o‘rtasidagi n undoshi m ga almashadi: sunbula-sumbula. “Avji saratonda boshlab, sumbula tuqqanida qazib bO‘lib edik” (“Momo yer qo‘sig‘i”, 69).

5. So‘z oxiridagi r tovushi l tovushiga almashadi: zarur-zaril. Bunda dissimilatsiya hodisasi kuzatiladi, ya’ni ikki o‘xhash tovushdan biri noo‘xhash tovushga aylanadi. Birga-billa.“Avtobusda bolalikdan billa o‘smish Sadir bo‘yinsasi bo‘ldi” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 73).

6. Undosh tovushlarning cho‘zilishi ularning qo‘s sh undosh holiga kelishi shaklida bo‘ladi: maza-mazza. “Ana endi, quyoshda mazza qilib toblanib yotamiz” (“Momo yer qo‘sig‘i”, 9). Ushbu gapdagi so‘zning takror shaklida qo‘llanishi ma’noni kuchaytirib, ekspressiv bo‘yoqdorlikni yuzaga chiqargan.

7. So‘z o‘rtasida v tovushi orttiriladi: surat-suvrat. “Doira suvratida aylantiraman” (“Oydinda yurgan odamlar”, 65).

8. So‘z o‘rtasida j tovushi y ga almashadi: majlis-maylis. “Maylis bo‘ldi! – deydi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 46).

9. So‘z oxirida y tovushi orttiriladi: obro‘-obro‘y. “obro‘y bor-da, misol uchun obro‘y bor, ha!” (“Ot kishnagan oqshom”, 92). Ushbu pragmatik nutqda shu so‘z orqali personajning ruhiy holati, uning biroz maqtanchoqlikka moyilligi aniq ko‘rinadi. Adib o‘z asarlarida fonetik dialektizmlar, so‘zlashuv uslubiga xos kishnagan oqshom”, 96). Bolish(ni) quchoqlaydi (“Oydinda yurgan odamlar”, 67).

2.Egalik qo‘sishmchasini tushirib yoki almashtirib qo‘llash holati: “Momomiz gap bilan andormon bo‘lib bilmaydi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 57). “Kel-kel, aynam, manavi yerga o‘tir, - dedi Hojar ko‘r” (“Oydinda yurgan odamlar”, 89).

2Adib asarlarida shevaga xos sifat so‘z turkumiga doir so‘zlar ham qo‘llangan. “Serjant Orziqulov chiyduxoba kamzulini kiyib oldi” (“Ot kishnagan oqshom”, 46). “Uloq bu gal maydagina bir to‘riqda ketdi” (“Ot kishnagan oqshom”). 119) gaplaridagi chiyduxoba ohori to‘kilmagan vilvitga o‘xhash material, mayda so‘zi kichkina ma’nosida qo‘llangan. Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan dialektizmga xos olmoshlar, asosan, adabiy tildagi variantidan fonetik jihatdan farqli ravishda qo‘llangan: “Polvon bova, manov Ermat polvonni bir sinab ko‘ring” (“Yulduzlar mangu yonadi”. 58). “Bari ayol shunday deydi” (“Momo yer qo‘sig‘i”, 45).

3.Ravish so‘z turkumiga oid so‘zlar ham asar syujetining qiziqarli bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilganligini ko‘rish mumkin. “Shu bois Tarlonni oshiqcha zarblamadim” (“Ot kishnagan oqshom”, 130). “Bovasi ilkisdan turib ketdi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 87). Zarblamadim so‘zi urmadim, majburlamadim, ilkisdan so‘zi esa to‘satdan ma’nosini ifodalagan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida eng katta so‘z turkumi hisoblangan fe‘l so‘z turkumiga tegishli holatlardan ham yozuvchi qissalarida hududga xos milliy koloritni ochib berish jarayonida yozuvchi tomonidan mohirlilik bilan foydalilanilgan. “GO‘sht maydalab boshladim”

(“Ot kishnagan oqshom”, 92). “Daho sho‘rvani muzdayligicha yedi” (“Ot kishnagan oqshom” 67).

Mazkur gaplardagi yozuvchi maydalamoq-to‘g’ramoq, yemoq-ichmoq (suyuq yeguliklar ichiladi, quyuqlari esa yeyiladi) fe‘llarini hududga xos sheva elementlarining o‘ziga xosligini ko‘rsatish maqsadida ishlatgan. Tog’ay Murod asarlarida har bir so‘zdan mohirona foydalanish, qisqa gaplardan ham fikrni aniq va lo‘nda ifodalash, oddiylikka intilish hamda xalq tilidan ko‘chimning, tildagi O‘zgarishlarning turli usullarini yaratish kuzatiladi. “Viloyat kattalar tasbehday-tasbehday tizilib turdi, kattalar yer chizdi, kattalar qizarib bo‘zardi” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 35). Yuqoridagi gapda “kattalar” so‘zi shevaga xos tarzda ishlatilgan bO‘lib, “katta” so‘zi sifat so‘z turkumi kabi belgi bildiruvchi so‘z emas, balki mansabdar shaxs ma’nosini bildiradi. Shu bilan birga, bunda ko‘chimdagagi metafora usulining belgi o‘xshashligi shakli qo‘llanadi. Bundan tashqari, “tasbehday-tasbehday tizilib turdi” birikmasida ham badiiy san’at mavjud. “Tasbeh” so‘zi asli diniy termin bo‘lib, yuqoridagiga gapdagiga o‘xshatish san’atini vujudga keltirishga xizmat qilgan. Yoki “Dehqonlar baqa bo‘lib qoldi” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 7). Ushbu gapda “baqa” zoologik termini orqali o‘xshatishning yana bir turi yassalgan. Yuqoridagi gapda tashbehning belgisiz tashbeh turi qo‘llangan bo‘lib, o‘xshatishning yuzaga kelganligidan ko‘rsatadi. Bu jarayon adibning xalq tilidan va shevalaridan yaxshi xabardor bo‘lganligidan dalolat berib turibdi. Asarda qo‘llangan shevaga xos terminlari tahlili arab raqamiga xos terminlarda ham metaforaning harakat o‘xshashligini kuzatish mumkinligini ko‘rsatadi. “1934-yil oyoqladi” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 44). Mazkur gapdagi shevaga tegishli bo‘lgan oyoq termini aslida anatomik termin bo‘lib, semantik ma’no bildirib, yilning yakunlanganligini bildiryapti. Termin sifatida yuritiladigan “bel” so‘zi orqali ma’no ko‘chishining metaforik usuli (shakliy o‘xshashlik) hosil qilingan. “Raykomning bahaybat mashinasi darvozasi oldida bel bo‘ldi” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 44). Yozuvchi asarlarida ma’no ko‘chishining turli usullaridan keng foydalanilgan. Uning asarlarida metaforaning turlari, o‘xshatish va uningshakllariga oid faktik materiallarning har biri matn doirasida turli xil ma’no ifodalanganligi bilan o‘ziga xos mazmun kasb etadi. Adib asarlarida qo‘llangan dialektizmlarga doir ijtimoiy-siyosiy terminlar ham ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Masalan: “El-yurtda qayta qurish, demokratiya, shariat so‘zleri oralab qoldi” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 77).

Bunda qayta qurish, demokratiya, shariat kabi terminlar orqali makon va zamondagi o‘zaro bog’liqlik asosida bir narsa va hodisaning nomi metonimiya yo‘li bilan ikkinchisiga ko‘chirilmoqda. Asarda sheva materiallari xos bo‘lgan ma’no kO‘chishining bir turi bo‘lgan sinekdoxa hodisasi ham uchraydi. “Men komandirning yolg’iz tirnog’ini odam qilishim kerak” (“Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, 54).<sup>5</sup> Ushbu gapda sinekdoxaning qismi orqali butun tushunilish turi qo‘llangan. Anatomiq termin bo‘lgan tirnoq ko‘chma ma’no hosil qilib, farzand ma’nosini ifodalagan. Xulosa qilib aytganda, Tog’ay Murod asarlarida dialektizmlarning fonetik, morfologik, leksik hamda ma’no ko‘chish bilan bog’liq ko‘rinishlaridan unumli foydalangan. Bu esa muallifning asar qahramonlari tabiatini hamda hudud so‘zlashuv nutqiga xos o‘ziga xosliklarni ko‘rsatib beruvchi

milliy koloritni ochib berishga alohida e‘tibor bergan o‘ziga xos uslubga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – Toshkent. 2002.
2. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.
3. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.
4. Tog‘ay Murod. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.
5. Tog‘ay Murod. Momo yer qo‘shig’i. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.

## **ZULFIYA SHE’RIYATIDA ARXAIZMLARNING QO‘LLANILISHI**

*Safarova Hamrooy Qahramon qizi, talaba, Guliston davlat pedagogika instituti  
[safarovahamrooy@gmail.com](mailto:safarovahamrooy@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arxaizmlar va ularning she'r jozibadorligini oshirishdagи o‘rnи, Zulfiyaxonim ijodida arxaizmlarning qo‘llanilishi, arxaik so‘zlarning mazmun mohiyati, shoira she’rlaridagi lirk kechinmalar, his-tuyg‘ular, badiiy xususiyatlar haqida asosli ma’lumotlar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** poetika, zamzama, lirika, obraz, xotira, arxaizmlar, tanqid, nahr, lirk qahramon, sinonim.

**Kirish:** O‘zbek adabiyotida yulduz singari porlagan va hamon o‘z yog‘dusini taratayotgan shoira, davlat arbobi, tarjimon, jurnalist, vafoli yor va mehribon ona Zulfiyaxonim hayoti va ijodini o‘rganar ekanmiz, bugungi kun yoshlari uchun shoiraning hayoti ham, ijodi ham katta mакtab ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Zulfiya she’rlaridagi har bitta so‘z, har bitta jumla va kuylangan mavzu alohida bir olamni, kutilmagan ma’nolarni ifodalagan. Zulfiya ijodini o‘rganish chog‘ida, she’rlarida o‘ziga ohanrabodek tortuvchi sehr jozibasi bilan birga tilning barcha unsurlaridan o‘rinli va maqsadli foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Zulfiya she’rlarida til sathlarining turli ko‘rinishlari qatorida arxaik so‘zlar ham talaygina va bu so‘zlar she’rlarning salmog‘ini yana ham oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot usullari.** Tavsiflash, izohlash, etimologik tahlil, semantik va sintaktik tahlil.

**Tahlil va natijalar.** Arxaizm – o‘z o‘rnini boshqa leksemaga bo‘shatib bergen leksik birlik. Ijtimoiy taraqqiyot natijasida ayrim narsa-hodisa boshqa leksema bilan atalib, avvalgilari iste’moldan chiqib ketadi. Masalan, ulus (xalq), lang (cho‘loq), tilmoch (tarjimon), dudoq (lab), cherik (armiya), salloh (qassob), ilik (qo‘l) va boshqalar. Arxaik leksema o‘zining neytral leksika tarkibidagi “o‘rinbosar”ining “tarixiylik bo‘yog‘i” ifoda semasi bilan farqlanuvchi sinonimidir. Ularning atash va vazifa semalari mushtarak birliklardir.

Tilda bo‘ladigan o‘zgarish – uzoq davom etadigan tadrijiy jarayon. Leksemaning tarixiylashuvi va arxaiklashuvi asta-sekinlik bilan yuz beradiki, uni ham darajalash mumkin. Tarixiylashish yoki arxaiklashishning quyi darajasidagi leksema tilning bugungi bosqichida kam bo‘lsa ham, iste’molda bo‘lsa, yuqori darajadagi eskirish natijasida leksema butkul iste’moldan chiqib ketadi [2].